

## **SHASHMAQOM IJROCHILIGIDA DUTOR SOZINING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Asrorova Mushtariy Karimjonovna**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI "O'zbek musiqa ijrochiligi"  
fakulteti 2- bosqich magistranti.

### **Annotatsiya**

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko‘p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda milliy kuy qo`shiqlarimiz bilan bir qatorda ulug’vor maqomlarimiz ham takomillashib serjilo bo`lib bormoqda. Ushbu maqolada Shashmaqom ijrochiligidagi dutor sozining o‘rni va ahamiyati haqida qisqacha yoritishga harakat qildik.

**Kalit so‘zlar:** Shashmaqom, dutor, ansambl, maqomlar, A. I. Petrosyan, S.Y. Dienko, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Abdusamat Vahobov, Faxriddin Sodiqov, Abdurahim Hamidov, Turg'un Alimatov, Mahmud Yunusov.

O‘zbek milliy musiqa san’ati juda qadimiy tarixga ega. Buni milliy asarlarimizning, cholg’u sozlarimiz va kuylarimizning mukammalligidan bilishimiz mumkin. Musiqa san’ati ijrochiligidagi an‘anaviy xonandalik boshqa yo‘nalishlarga nisbatan keng qamrovli, yetakchilik xususiyatiga ega yo‘nalishdir. Musiqaning mukammalligi, sehri, zabardastligi hamda ifodaviylicha xonanda talqinida to‘laqonli ifodalaniishi muqarrar. Shu bilan birga inson ovozi jamiki sozlarning asosidir. Tarixda nimaiki yaratilgan bo‘lsa, kashf etilgan bo‘lsa, musiqiy cholg’ular namunasida bo‘lsa, unga, albatta, inson ovozi ibrat bo‘lgan. Shu bois, inson ovozining imkoniyatlari, sir-u sinoatlari, turli mezonlariyu behisob jozibalari bashariyatni hayratga soladi. Bu asrlarni idroklash uchun kashfiyotlar, turli urinishlar, ilmiy va ommabop tadqiqotlar olib borilgan. Bu jarayon zamonamizda ham o‘z oqimida davom etib, turli yo‘nalishlarda izlanishlar olib borilayotganligi quvonarlidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, tarmog’ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga ustuvor ahmiyat berilmoqda.

Milliy mumtoz musiqamiz, xususan maqomlarimiz qadimdan o‘zining ma’lum qonun qoidalari asosida rivojlanib, takomillashib kelgan. Ulardagi mezonlar esa pardalar uyushmasi va uning zaminida bitilgan kuy, ohanglar uyg’unligi, vazn, usul tartibi bilan belgilanadi. Isxoq Rajabov "Maqomlar" nomli ilmiy monografiyasida shunday so‘zlarni keltirgan: "Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o‘ziga xos musiqiy boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy hamda tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida

yuzaga kelgan.” Ma'lumki, mumtoz musiqiy merosimizning eng sermahsul qismini maqom ijodiyoti tashkil etadi. Uning tarkibiga turli davrlarda bastakorlar tomonidan ijod etilgan har hil xajmli mukammal namunalar kiritilgan. Ular bugungi kunga qadar xalqimizning buyuk shaxslari, sozanda-yu xonandalari tomonidan ko‘z qorachig’idek asrab avaylab kelinadi.

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko‘p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, xursandlik bag’ishlaydi, og’ir damlarni yengil qiladi. U insonning olivjanob fazilatlari, his - tuyg’ularini ifodalab beruvchi kuchga ega. Xalqimizning o‘lmas musiqa xazinasi - maqom janri o‘zbek va tojik xalq musiqa merosida alohida o‘rin tutadi.

Maqomlar yuksak badiiy estetik kuchga ega bo‘lgan asarlardir. Ularning ijrochiligidagi esa dutor sozining alohida o‘rni mavjud. Ansambl tarkibida yoki yakka ijrochilik amaliyotiga nazar solinsa dutor sozida maqomlar ijrosi o‘zining jozibadorligi, qolaversa ta’sirchanligi bilan boshqa sozlardan ajralib turadi.

Shubha yo‘qliki, maqom yo‘llarini chuqurroq o‘rganib, uni dutor ijrochiligi uslubiyotining xilma xil uslublarida o‘ziga xosliklari bilan ijro etish nafaqat ijrochi qolaversa tinglovchida ham go‘zal maqomlarimizga bo‘lgan intilishni yanada kuchaytiradi.

Hozirgi kunda maqomlar bastakorlar, kompozitorlar ijodida ham sezilarli o‘rin egallab kelmoqda. Bastakorlar kuy ashulalar yaratishda beixtiyor ravishda ma'lum maqom yo‘liga tushib qoladilar. Ba’zan esa yaratilgan musiqa asari maqom yo‘llarining o‘zi bo‘lib chiqadi. Buning sababi, ijodkorning turg’un lad qiyofada puxta ishlangan maqom yo‘llariga asoslangani va maqom yo‘llarini chuqur o‘zlashtirib olganligidir. Maqom yo‘llari asosida ishlangan asar ko‘pincha ularning ihchamlashtirilgan shakli bo‘ladi. Bunda kuy va ashulalarga yangi musiqa lavhalari, yangicha usul va qochirimlar kiritish bilan ularning yoqimliligi va ta’sirchanligi yanada orttiriladi. Kompozitorlarimizning musiqali drama va opera asarlarida maqom yo‘llaridan foydalanib kelingan ekan, bu fakt Shashmaqom yo‘llarining naqadar hayotiy ekanini, yangi-yangi musiqali drama va operalar hamda simfonik asarlar yaratishda muhim manba ekanini ko‘rsatadi.

1920-yillar oxiri 1930-yillar boshida dutorni takomillashtirishga kirishildi. Konstrukturlar birinchi navbatda cholg’u tovushini yanada kuchaytirish haqida o‘ylay boshlashdi, ayni mahalda dutorning parda bog’lamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori o‘zgarishsiz qoldirildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholg’u yaratish ishlari 1930-yillarning oxirida A. I. Petrosyan va S.Y. Didenko tomonidan boshlandi. Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bog’lama pardalar doimiy, o‘yma pardalar bilan almashtirildi, tashqi jihatdan xalq cholg’usidan birmuncha bo‘lakcha ko‘rinish kasb etadi. Keyinchalik tipik namuna asosida prima, sekunda, alt, bas va kontrabas dutorlar yaratildi. Bas va kontrabas dutorlar qattiq charm noxun bilan chalinadi. Dutorlar oilasidan hozirgi o‘zbek xalq cholg’u ansambllari va orkestrlarida foydalilanildi.

Dutor azal-azaldan O‘rtta Osiyoning turli vohalarida o‘z shevasi va an’anasi asosida iste’molda bo‘lib kelgan xalq ommaviy ijro yo‘llari daydi yoki yovvoyi ijro yo‘llari hamda an’anaviy mumtoz ijro yo‘llari doimo xalq dutor ijrojilik amaliyotini bezab kelgan. Dutor aslida xalqona uslubga moyilligi bilan mumtozlik darajasigacha rivojlangan. Dutor xalq cholg‘u ijrochilik amaliyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va turli cholg‘ular bilan jo‘rnavozlikda, davr madaniyati rivojida munosib o‘rin tutgan hamda kerakli cholg‘u sifatida qadrlangan. Shu bois bo‘lsa kerak bizning zamonamizga kelib dutorning xilma-xil tarkibiy ansamblari, yakkanovozlikda uslublari yanada ko‘paydi. Yoshlarning bunga ijobiy munosabatda bo‘lib, uni qabul qilishi quvonarli holdir.

Uzoq yillar davomida dutor ijrochilining turli yo‘nalishlari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyoti amaliyotida, yakkanavoz va jo‘rnavoz soz, hattoki an’anaviy uslubda o‘zining maxsus maqom yo‘llarini yaratishiga ham sabab bo‘lgan. Bunga yorqin misol Xorazm dutor maqomlaridir. Demak, dutor ijrochiligi o‘zining serqirraligi bilan ahamiyathi. XX

asrga kelib dutor ijrochiligi professional darajada rivojini topdi. Yakka soz ijrochiligi, ayniqsa, ustozona uslubda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Bu albatta, dutorning o‘tmish ijrochilik amaliyotida erishgan ijro imkoniyatlari, xalq orasida dutor ijro an'analarini rasm qilgan mohir ijrochilar ijodi bilan baholanadi. Natijada dutor ijrochiligidida voha va shaxsiy ijobi uslublari shakllandi va ommalashdi. Bunday ijro uslublarining paydo bo‘lishi sozning inson tabiatini qirralarini yanada kengroq ochib berishga imkon yaratdi. Dutor ijrochilining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo‘lib bordilar.

Uslublar vaqt o‘tib o‘z-o‘zidan ijro maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochiligi maktabi yoki Qo‘qon ijro maktabi ana shunday an'analar asosida yuzaga kelganligi begumon. Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg‘u yo‘llarining bir qator tomonlari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo‘lgan. Birinchidan ijro dasturi, ya’ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o‘ziga xos xususiyatlardir. Ushbu printsip plarsiz ijrochilikni maktab darjasida tasawur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi.

Dutor sozi quyidagicha ta’riflangan o‘rinlar mavjud: - «Dutor sozi Xorazm o‘lkasida xalq orasida tanburdan ortiqmoch suratda tarqalgan bo‘lsada, tanbur qadar tartibda intizom ostina olinmagandur. Garchi dutor nag‘malari tanbur nag‘malari qadar bo‘lsada, tanburga berilgan ahamiyatni dutor nag‘malarina bera olmaganlar. Chunki, chertilish yoqidan qaraganda tanburdan qiyinroqdir».

Bu fikr esa dutor maqom ijrochiligidida tanburchalik mohir bo‘lmasada, murakkab va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lganini bayon etadi. Shu bois bo‘lsa kerak, Xorazm dutor ijrochilik uslubi zarblarga boy, rang-barang va eng muhimi Xorazm vohasiga xos «shovqinli» ijro uslubi sifatida alohida qayd etiladi. Bu ijro o‘ng qo‘l harakatlarini cholg‘u qopqog‘iga ishqalab chalish

bilan xarakterlanadi. Ushbu vohaning Matkarim Hofiz, Jumaniyoz ota Hayitboev, Otajon Qo'shmo, Sharif Botir, Nurmuhammad Boltaev, Yusuf Jabbor kabi mashhur dutorchilarining ijro yo'llarini alohida e'tirof etish o'rinnlidir. Ayni paytda bu ijro yo'llari yoshlar tomonidan munosib davom ettirilishi muhimdir.

Bugungi kun yoshlari dutor ijrochiligining tamal toshlari bo'lmish buyuk ustozlar nomini har vaqt yodlarida saqlashi lozim. Tariximiz zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Abdusamat Vahobov, Faxriddin Sodiqov, Abdurahim Hamidov, Turg'un Alimatov, Mahmud Yunusovlar haqida qancha fikr yuritmaylik shuncha oz. Biz yoshlar nafaqat ularning ijrolari bilan tanishish, balki ular darajasidek ijro malakamizni oshirish yo'lida tinim bilmay mehnat qilishimiz lozim. Kelajakda bebaho asarlarimiz, ayniqsa Shashmaom ijrochiligining yana uzoq yillar gullab yashnashi uchun bugungi kun yoshlari maqomlarni chuqur o'rganib amaliyotga keng tadbiq qilishi zarur. Bizga yaratib berilayotgan bugungi kundagi shart-sharoitlardan unumli foydalanib, kelgusida o'z kasbimiz rivojiga ulkan hissalar qo'shishga va'da beramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.Rajabov. "Maqomlar", Toshkent-2006;
2. R.Yunusov.O'zbekiston sanat ustalari. Mirsodiq Tojiyev. Toshkent 2018;
3. M.Ziyayeva. (F. Sodiqov ijro uslubi) To'ldirilgan II nashri. (O'quv-uslubiy qo'llanma). Toshkent-2011.